



Received: July 4, 2023
Accepted: September 25, 2023
Available online: September 25, 2023

Kamaraddin Davletov

Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
Urganch, O'zbekiston

FRANSUZ TILIDAGI *PEUR* (QO'RQUV) KONSEPTINING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI

ANNOTATSIYA

Lingvomadaniyat va pragmalingsvistika o'zbek tilshunosligida eng yosh ilmiy yo'nalish bo'lib, bu sohada izlanishlar endi boshlanmoqda. Aytish joiz-ki, hanuzgacha o'zbek romanistikasida *qo'rquv* konsepti fransuz tilli materiallari asosida o'rganilmagan, tahlil qilinmagan. Ushbu maqolaning maqsadi fransuz tilida *qo'rquv* emosional konseptiga kiruvchi leksik va frazeologik birliklari spetsifikasi, sinonimik qatorlari, leksik gradatsiyalar va semantik farqlarni o'rganshdir. Bu pirovardida *qo'rquv* konseptining lisoniy tafakkurga xos lingvopragmatik, lingvomadaniy jihatlarini aniqlash va izohlash imkonini beradi.

Maqolada fransuz tilidagi "*peur/qo'rquv*" konsepti leksik-semantik maydoniga kiruvchi leksik birliklar tanlab olinib, distributiv va komponent tahlil metodlari asosida turli guruhlariga ajratilib tasniflandi. Tanlangan leksemalar semalariga ko'ra kichik sinonim guruhlariga ajratildi va semantik belgilari asosida jadvalga solib sharhlandi. Bundan tashqari, *Peur* konsepti otlarining gapdagi vazifasi, semantik tarkibi, son kategoriyasi aniqlanib, predloglar yordamida boshqa otlar, sifatlar va fe'llar bilan birikishi tahlil qilindi. *Qo'rquv* konseptiga tegishli otlarning sintaktik va semantik muvofiqligi tahlili natijalari ularning komponent tahlili natijalari bilan solishtirilganda, so'zning ma'no nuanslari va qo'llanish holatlarining o'zaro bog'liqligi tasdiqlandi. Mazkur konsept otlari turli darajadagi umumiylikdagi semantik komponentlar bilan murakkab semantik tuzilishga ega. Ba'zi hollarda *qo'rquv* konsepti birliklari va boshqa hissiyotlarni anglatuvchi birliklar o'rtasida bog'liqlik namoyon bo'ladi. Boshqa vaziyatlarda

Kamaraddin Davletov

PhD Student, Urgench State University
Urgench, Uzbekistan
E-mail: k.k.davletov@gmail.com

LEXICAL-SEMANTIC ANALYSIS OF THE CONCEPT *PEUR* (FEAR) IN THE FRENCH LANGUAGE

ABSTRACT

The field of romance philology has yet to explore the emotional concept of fear in the French language. This article aims to examine the specification, synonymy series, lexical gradations, and semantic differences of lexical and phraseological units associated with fear in French. Ultimately, this study will help define and interpret the linguistic-pragmatic and linguistic-cultural aspects of the concept of fear in French.

The article presents a study on the French language's lexical-semantic field related to the concept of "*peur/fear*". The study selected and classified the lexical units of this field using distributive and component analysis methods. The lexemes were divided into groups based on their semantics and then interpreted in a table according to their semantic features. Additionally, the study analyzed the function, semantic structure, and number category of the nouns of the *Peur* concept in a sentence. It also explored how these nouns combine with other nouns, adjectives, and verbs using prepositions. The study confirmed the interdependence of the nuances of the meaning of the word and the cases of its use. The concept nouns related to fear have a complex semantic structure with semantic components of different levels of generality. They may also have correlations with units of other emotions or can be isolated and generalized. Based on these cases, the study divided the number of words that are close in meaning into synonymous subgroups and revealed the specific characteristics of individual units.

In conclusion, it can be observed that fear is often associated with hatred in certain situations. The nouns that are commonly used to describe

esa *qo'rquv* konsepti otlari izolyatsiya qilinishi va umumlashtirilishini kuzatish mumkin. Bu holatlar asosida ma'no jihatdan yaqin bo'lgan qator so'zlar sinonimik kichik guruhlariga bo'linadi va alohida birliklarning o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi.

Xulosada ba'zi leksemalarda *qo'rquv*ning nafrat tuyg'usi bilan aralashganini kuzatish mumkin. Tuyg'uni ijobiy yoki salbiy baholash mazkur konseptning asosiy turkumidagi otlarda mavjud emas, lekin *peur* ma'nosiga ega uslubiy sinonimlar va iboralarda salbiy belgilar mavjud. Masalan, *pétoche*, *copeaux* kabi, shuningdek, *qo'rquv*ni boshdan kechirgan odam – *lâche*, *couard* va *qo'rquv*ning tarqalishiga hissa qo'shuvchi – *panicard*, *alarmiste* kabi bir qator hosila otlarda bu holat kuzatiladi. Shunday qilib, leksik, morfologik-sintaktik, funksional-semantik, stilistik-poetik vositalar tahlili fransuz millati lisoniy madaniyatida *qo'rquv* holatlari ifodalanishi o'ziga xos ekanligini ilmiy-nazariy jihatdan isbotladi.

Kalit so'zlar: *qo'rquv* konsepti, semantik maydon, leksik birliklar, sinonimik qator, komponentlar tahlili, morfologik-sintaktik bog'lanish, ma'no darajalari.

this concept do not inherently have a positive or negative connotation, but the synonyms and expressions that are synonymous with “*peur*” (the French word for fear) tend to have a negative connotation. This situation can be seen in several derivative nouns, such as “*pétoche*” and “*copeaux*”, as well as in the words used to describe a person who has experienced fear, such as “*lâche*” and “*couard*”, or someone who contributes to the spread of fear, like “*panicard*” and “*alarmiste*”. Therefore, the analysis of various linguistic tools, including lexical, morphological-syntactic, functional-semantic, and stylistic-poetic tools, has scientifically and theoretically proven that the expression of fear in the French language and culture is unique.

Key words: concept of fear, semantic field, lexical units, synonomic series, component analysis, morphological-syntactic connection, classification by levels.

KIRISH

Bugungi kunda turli madaniyat vakillarining muloqot jarayonida boshdan kechiradigan tuyg'ulari, hissiyotlari, ularni qo'zg'atuvchi omillar va ularning nutqda ifodalanishi muhim ahamiyatga ega ekanligi hech kimga sir emas. Shuning uchun boshqa fanlar qatorida lingvokulturologiyada ham, emotsional konseptlar va ularning tilda aks etishiga alohida e'tibor qaratilgan. Xususan, fransuz tilidagi *peur* (*qo'rquv*) konseptini tadqiq qilish va tasniflashda ham eng maqbul yo'llardan biri, uning darajalarini ifodalovchi leksik vositalarni tahlil qilishdir. Modomiki, konsept mental birlik hisoblanar ekan, u tilda so'z, so'z birikmalari, frazeologik birliklar, maqollar va metaforik o'xshatishlarda ifodalanadi. Shuningdek, ekstralingvistik voqelikni ham leksik vositalar muayyan darajada aniq, ravshan ifodalaydi, chunki aynan so'zlar axborotlarni idrok etish, saqlash va yetkazishda birinchi darajali ahamiyatga ega [Kubryakova, 1991; 88].

Har qanday tilda ham *qo'rquv* emotsional konsepti leksik va frazeologik qatlamda ifodalanadi, shu jihatdan ham bu konseptni universal konseptlar turkumiga kiritish mumkin. Til birliklari spetsifikasi, sinonimik qator sarmazmunligi, leksik gradatsiya va shu kabi omillar *qo'rquv* konseptining lisoniy tafakkurga xos lingvokognitiv va lingvomadaniy jihatlarini aniqlash va ularning xususiyatlarini izohlash imkoniyatini beradi. *Qo'rquv* konsepti zamonaviy fransuz tilida *peur*, o'zbek tilida esa *qo'rquv* leksemalari orqali ifodalanadi. Fransuz tilidagi *peur* konseptual maydoniga kiruvchi

crainte, angoisse, frayeur, horreur, frousse, trac, effroi, épouvante, terreur kabi soʻzlar va *avoir la trouille, avoir la pétoche, avoir les jetons, avoir les foies, avoir le trouillomètre à zéro* kabi turgʻun birikmalar qoʻrquvning turli darajasini koʻrsatish, uning oqibatida yuzaga kelgan inson reaksiyasini tasvirlash maqsadida qoʻllaniladi. Shubhasiz, asosiy va muhim boʻlgani *peur* soʻzining oʻzidir. Fransuz tilining etimologik lugʻatiga koʻra *peur* soʻzi lotincha *poverum* soʻzidan kelib chiqqan. Bu soʻz barcha roman tillarida uchraydi, ammo turlicha talaffuzga ega. Fransuz tili sinonimlar lugʻati 13ta sinonimni sanab oʻtadi: *angoisse, crainte, terreur, horreur, épouvante, panique, apprehension, alarme, phobie, frousse, malepeur, vesse, venette* [Le Fur, 2005; 857].

Qoʻrquv hissiy konseptini tadqiq qilishda A.Vjebitskayaning “Nemis tilida *angst* tushunchasi” haqidagi, shuningdek, rus va ingliz tillarida *qoʻrquv* konsepti haqidagi tadqiqotlari [Vjebitskaya, 1999; 105]. N.A. Krasavskiyning “nemis tilida *qoʻrquv* tushunchasining leksik-semantik maydoni” tadqiqiga bagʻishlangan ilmiy izlanishlari [Krasavsky, 2001]. O.N. Grigorevaning hozirgi zamon rus tilida *teror* tushunchasi tadqiqi toʻgʻrisidagi ilmiy maqolalari [Grigoreva, 2002; 85] bunga yorqin misol boʻla oladi.

Qoʻrquv hissining namoyon boʻlishini shartli ravishda 3 turga boʻlish mumkin:

1. Faqat his qilayotgan shaxs tomonidan anglanadigan qoʻrquv.
2. Ham kuzatuvchi, ham his qilayotgan shaxs tomonidan anglanadigan qoʻrquv.
3. Faqat kuzatuvchi tomonidan anglanadigan qoʻrquv.

Lugʻatni tizimlashtirishga qaratilgan ilmiy ishlardagi leksik birliklarning oʻziga xos xususiyatlari va “naqsh”larini obyektiv, aniq, neytral andozalardan foydalangan holda tavsiflash asosiy tamoyil hisoblanadi, ammo tan olish kerakki, muloqot jarayonidagi emfatik-emotsional markerlar, maʼno nyuanslari, tinglovchi reaksiyasi, umuman nutqning leksik-semantik, pragmatik xususiyatlari koʻproq muloqot jarayonida ayon boʻladi.

Koʻpgina rus tilshunoslari sintaktik xususiyatlar va semantik xususiyatlar oʻrtasidagi munosabatlar muayyan qonuniyatlar asosida boʻlishi haqida yozganlar (R.A. Budagov, Y.D. Apresyan, I.A. Melchuk, V.G. Gak, T.P. Lomtev, M.D. Stepanova, A.I. Kuznetsova, Y.Shaikevich, V.A. Moskovich va boshqalar). V.Porzig, A.Rudskoger, C.Osgud, P.Jiro va boshqalar yozganidek, “nutqda asosan distributiv va transformatsion metodlar muloqot jarayonidagi shart-sharoitlarni aniqlashga, polisemantik soʻzlarning maʼnolarini aniqlashga xizmat qiladi” [Basharina, 2007].

Semantik maydon mavzusi XX asrning uchinchi choragidan boshlab milliy tilshunosligimiz dargʻalari boʻlmish R.Rasulov, T.Mirzaqulov, I.Qoʻchqortoyev, A.Nurmonov, N.Mahmudov, H.Neʼmatov, H.Hojiyev, A.Mamatov, Sh.Safarov, J.Yakubov, D.Ashurova, M.Djusupov kabi olimlarning diqqatini tordi. Ularning ilmiy-nazariy qarashlari hozirgi kunda oʻzbek tilshunosligida yangi yoʻnalishlar ligvokulturologiya va lingvopragmatika sohalarida qilinayotgan ilmiy tadqiqotlar uchun tamal toshi vazifasini oʻtab kelmoqda, xususan, biz mazkur maqolani yozishda Sh.Safarovning “Sintaktikaning qaramiga qoldirilayotgan “lisoniy belgilar oʻrtasidagi munosabat” semantikani qiziqirtmasligini tasavvur qilish qiyin. Til birliklarining

o‘zaro birikish qonuniyatlarini kuzatish, bir tomondan, ularning ma’no xususiyatlarini oydinlashtirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, bu birliklarning ma’no ko‘lamini aniqlashga asos bo‘ladi” degan fikriga tayanamiz [Safarov, 2013; 18]. Biz, shuningdek, tilshunos olimi X.Imamovanning “Tilshunoslikda muayyan mazmuniy guruhlarini, semantik bog‘lanishlarni ifoda etuvchi kategoriya, semantik maydon, konsept tushunchalari mavjud. Mazkur tushunchalar tilshunoslik taraqqiyoti nuqtayi nazardan yondashilganda muayyan tartibdagi kategoriya → semantik maydon → konsept munosabatini hosil qiladi” degan nazariyasiga qo‘shilamiz [Imamova, 2017; 13].

TADQIQOT METODLARI

Fransuz tilidagi *peur* konseptini tavsiflashda zamonaviy tadqiqot metodlari, ayniqsa, Amerika strukturalistlari tomonidan keng qo‘llanilgan distributiv metod ancha foyda beradi. Distributsiya – “gapda so‘zlar o‘rtasida sodir bo‘ladigan grammatik konstruktsiyalar to‘plami va ushbu konstruktsiyalarda ma’lum bir so‘zlar bilangina ishlatiladigan elementlar sinflari”dir [Sahlgren, 2008]. Ushbu metodning boshlang‘ich nuqtasi – so‘zning qo‘shilish qobiliyati uning ma’nosi bilan chambarchas bog‘liq, ulardagi semantik farqlar va o‘ziga xos xususiyatlar so‘zlarning sintaktik aloqalarida namoyon bo‘ladi – degan gipotezadir. Chunki muntazam ravishda birgalikda uchraydigan so‘zlarning semantik ma’nolarini barcha birikuv holatlarini sanab o‘tish orqali tasvirlash mumkin. Distributiv tahlil metodi bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘rganilayotgan so‘z – iborani tanlash.
2. Ushbu iborani sintaktik soddalashtirish, bu to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmaydigan so‘zlarni olib tashlashdan iborat, shuningdek ba’zi grammatik kategoriyalarni (son, zamon, fe’l mayli, jins, sifat, son va boshqalarni) ko‘rib chiqishdan voz kechishni o‘z ichiga oladi.
3. Leksema elementlarining ma’lum morfologik sinflarga mansubligini va joylashuvini bildiruvchi belgilar yordamida kodlash, umumiy formula yaratishga imkon beradi.
4. Qoida tariqasida so‘zning leksik-sintaktik turlarini ko‘rsatish orqali, so‘zning semantik xususiyatlari hali to‘liq namoyon bo‘lmagan formulasini aniqlashtirish – jonli-jonsiz, konkret-mavhum va boshqalar.
5. Bir qator taqsimlovchi konstruktsiyalarni umumlashtirilgan modelga qisqartirish.

Sintaksis orqali semantikani modellashtirishda taqsimlash usuli transformatsiya metodi bilan to‘ldiriladi. Transformatsiya deganda ma’no o‘zgarishsiz sintaktik tuzilmaning elementlarida bo‘ladigan o‘zgarishlar tushuniladi.

Mazkur maqolada *peur* konsepti otlarining sintagmatik munosabatlarini distributiv tahlili usuli nuqtai nazaridan ko‘rib chiqamiz. Semantik jihatdan o‘xshash so‘zlar bilan paradigmatic munosabatlarni aniqlashda biz ko‘plab tilshunoslar tomonidan ishonchli ma’lumot manbai sifatida qabul qilingan lug‘at ma’lumotlariga tayanamiz. Shuningdek, L.N. Zazorinaning fikriga qo‘shilamiz, u “lingvistik tahlil metodlari nolingvistik, intuitiv farazlar bilan birlashtirilishi mumkin”, chunki har

qanday semasiologik xususiyatga ega tilni o'rganishni busiz amalga oshirish mumkin emas [Zasorina, 2014; 179].

Leksik materialning miqdoriy ko'pligi va sifat jihatidan xilma-xilligi tufayli so'zlarning semantik tuzilishini tahlil qilish bir qancha qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, bu esa so'zlarni o'rganishning turli metodlarini birgalikda qo'llashga chorlaydi. Shuning uchun maqolamizda *peur* konsepti tarkibini semantik komponentlar majmuasi sifatida qaraymiz va ularni izohlashda komponentli tahlil metodidan keng foydalanamiz. Shuningdek, maqolamizda Y.S. Stepanov aytib o'tganidek, komponentli tahlil metodi binar modellar bilan birlashtiriladi, mazkur konsept leksik birliklari R.Jeykobson, V.Brendal, T.P. Lomtevarlar qo'llagan identifikatsiya usuli, Sh.Balli, D.Gugenem, A.Jolkovskiylar foydalangan semantik almashinuvlar usuli bilan tadqiq qilinadi [Stepanov, 1985; 331].

NATIJAR VA MUNOZARA

Peur konsepti otlarining semantik tarkibi

So'zning semantik tarkibi deganda "leksik-semantik variantlar bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan va bir-biriga nisbatan xarakterlanadigan, umumlashtirilgan modelni tashkil etuvchi, o'zaro bog'langan elementlarning tartibli turkumi" tushuniladi. Biz bu tarkibni qo'rquv konseptining semantik maydoni deb nomladik va tadqiqot obyekti sifatida faqat "peur" ma'nosi bilan bog'liq lug'at birliklarini oldik.

Peur konsepti birliklarining leksik-semantik tuzilishini tahlil qilishda so'zning nutqda faoliyat ko'rsatishi davomidagi leksik va sintaktik sintagmatikasi sifatida belgilangan mantiqiy-predmetli xususiyatlar, so'zning leksik paradigma ichidagi assotsiativ aloqalari va munosabatlari hisobga olinadi.

V.G. Gak tilning semantik tuzilishi bilan uning grammatik tuzilishi o'rtasidagi o'xshashlikni ko'rib, nutqning har bir bo'lagi grammatik kategoriyalar yig'indisi bilan tavsiflanganidek, leksik-semantik guruh ham ma'lum semantik kategoriyalar bilan ajralib turishini, tarkibiy qismalarga bo'linishini ta'kidlaydi [Gak, 1995; 117]. So'zning semantik tarkibida semalar – mazmun rejasining bir tomonlama birliklari va leksik-semantik variantlari (LSV) – mazmun planining ikki tomonlama birliklarini ajratish mumkin. U yoki bu LSV kontekst bilan chambarchas bog'liq bo'lib, so'zning nutq zanjirida ishlashini aniqlaydi va shu bilan birga so'zning semantik salohiyati doirasida semantik komponentlarning o'zgarishiga imkon beradi. Bunday holda, ba'zi semalar o'chirilishi va boshqalari kuchaytirilishi mumkin, bu ba'zi hollarda so'z ma'nosida semantik siljishlarga olib keladi.

So'zlarning iyerarxik semantik tuzilishida quyidagilarni ajratib ko'rsatishimiz mumkin:

I – umumiy, kontseptual semalar.

II – so'zlarning grammatik sinflarga bo'linishi bilan bog'liq kategorik semalar.

III – grammatik sinf ichidagi ma'lum semantik kategoriyalarni aniqlash imkonini beradigan pastki kategoriyali semalar, masalan, mavhum va konkret, jonli va jonsiz otlar.

IV – farqlovchi semalar.

Ushbu qismda qo‘rquv konseptiga tegishli otlarining ma‘nosi quyidagi manbalardan olingan semantik komponentlar, semalar to‘plami sifatida tavsiflanadi:

1. Eng to‘liq va sinovdan o‘tgan ensiklopedik va sinonimik lug‘atlarda berilgan leksik birliklar ma‘nolari talqini.

2. Hozirgi fransuz nashriy matnlarida tahlil qilinayotgan birliklarning semantik-sintaktik moslashuviga oid kuzatishlar.

Birinchi bosqichda *qo‘rquv* konsepti otlarni bitta semantik guruhga birlashtirishga asos bo‘lgan umumiy semantik elementlar o‘rganiladi, so‘ngra asosiy leksemaning sinonimik qatorida ma‘no nyanslarini aniqlash imkonini beradigan semantik komponentlar ko‘rib chiqiladi.

Tadqiqotimizda quyidagi *peur* konseptiga oid o‘n beshta leksik birliklarni ko‘rib chiqamiz: *peur, frayeur, effroi, terreur, épouvante, panique, affolement, horreur, crainte, appréhension, inquiétude, angoisse, anxiété, alarme, alerte. Transes, affres, phobie, timidité* otlari esa past chastotali koeffitsiyentga ega va shuning uchun batafsil tahlil qilinmaydi. *Qo‘rquv* konseptiga oid otlarining distributsiyasini tavsiflashda ta‘kidlanganidek, bu otlarning barchasi “*sentiment*” leksemasi bilan birikkan holda qo‘llanilishi kuzatiladi. Biroq, bu identifikatsiya nafaqat *peur* konsepti otlari uchun, balki his-tuyg‘ularni bildiruvchi barcha leksemalar uchun ham amal qiladi, shuning uchun *his* semasi hissiyotlarning semantik maydonining barcha birliklari uchun umumiy bo‘lgan majburiy semantik komponent hisoblanadi.

Qo‘rquv konseptiga kiruvchi otlar semantik jihatdan bir-biriga yaqin so‘zlar bo‘lib, umumiy *hissiyot* ma‘nosi bilan bir qatorda ma‘noning quyidagi umumiy, konseptual tarkibiy qismlariga ega, chunki bu barcha tirik mavjudotga xos bo‘lgan, xavf tufayli yuzaga keladigan, ma‘lum psixofiziologik belgilar orqali namoyon bo‘ladigan salbiy his-tuyg‘ularning bir turidir.

Qo‘rquv konsepti otlari umumiy ma‘nosi kamayib boruvchi leksemalar ketma-ketligi tartibida joylashtirilgan va xavf, tahdid mavjudligini nazarda tutuvchi komponentdan boshlanadi. Binobarin, “xavfning mavjudligi” komponenti berilgan leksik-semantik guruhning o‘ziga xosligini belgilaydi.

Xavfni ko‘rsatadigan semantik komponentning mavjudligi, *qo‘rquv* konseptiga oid leksemalarni to‘rt sinonim guruhga ajratish imkonini beradi:

I – *peur* dominant leksemasi bilan – haqiqiy xavf yoki xayoliy tasavvur qilingan *qo‘rquv* tuyg‘usi tufayli yuzaga kelgan.

II – *panique* dominant leksemasi bilan – bo‘rttirib qabul qilinadigan yoki qarshilik ko‘rsatib bo‘lmaydigan, kutilmagan xavf oldida paydo bo‘ladigan tuyg‘uni ko‘rsatadi.

III – *crainte* dominant leksemasi bilan – ehtimoliy kutilgan, taxmin qilingan xavfni ko‘rsatadi.

IV – *inquiétude* dominant leksemasi bilan – xavf haqida o‘ylash va noaniqlik elementlari bilan tavsiflangan tuyg‘uni bildiradi.

Ya‘ni bu tasnifda berilgan izohlarda xavf ostida qolgan tirik mavjudotning ko‘proq yoki kamroq darajadagi instinktiv reaksiyasini tushunamiz. Lug‘atlarda I guruh birliklarini izohlashda *émotion-choc, vive émotion, agitation véhemente de*

l'âme soʻzlari qoʻllanilgan.

Peurning eng yaqin sinonimi *terreur*, ammo bu hissiy jihatdan boyroq tuygʻu boʻlib, uning mavjudligida odam fikrlash qobiliyatidan mahrum boʻlmaydi: *envisager qch avec terreur, penser à qch avec terreur*.

Terreur soʻzi bilan ifodalangan tuygʻu bir paytning oʻzida koʻp sonli odamlarni qamrab olishi mumkin, uni “*panique*” (*une terreur panique*) tuygʻusiga oʻxshatish mumkin. Bu semantik konnotatsiya *terreur* otining “koʻpincha siyosiy maqsadlar qoʻrqitish tizimi deb qaraladi”: “*peur collective qu'on fait régner dans une population, un groupe pour briser sa résistance*” [<https://dictionnaire.lerobert.com/...>].

Frayeur va *effroi* otlari *peur* va *terreur* soʻzlariga qoʻshni boʻlib, ammo *effroi* kuchliroq va koʻpincha uzoq davom etadigan qoʻrquv tuygʻusini bildirishi bilan farq qiladi: *vivre dans l'effroi, l'effroi dure*. Shu bilan birga, *effroi* birligi bilan ifodalangan qoʻrquv, bu tuygʻuni keltirib chiqaradigan narsa nafaqat qoʻrqinchni, balki nafratni ham uygʻotishi mumkin, yaʼni *effroi* qoʻrquvni keltirib chiqaradigan sababning xunuk, jirkanch xarakterini ochib beradi:

Mais elle ouvrit soudain des yeux horrifiés et poussa un cri d'effroi [Bailly, 1947; 118].

Jirkanchlikni uygʻotadigan qoʻrquv obyekti *horreur* otida yanada aniqroq ifodalangan:

... *l'horreur* que je ressens devant un visage d'homme où je ne lis rien que de *monstrueux* [Duras, 1984; 81].

Cependant nos chères femmes, penchées à la fenêtre poussaient des cris d'horreur et de dégoût, et ma mère frottait son avant-bras pour effacer la chair de poule [Exbrayat, 1970; 29].

Alarme va *alerte* otlari asosan “xavf signali” maʼnosida qoʻllanadi: *signal d'alarme; donner, sonner l'alarme; la chaude alarme (alerte), la fausse alarme (alerte)*. Metonimik jihatdan *alarme* (signal) soʻzining oʻzi qoʻrquvni ifodalay boshladi va “*émotion subite*” (Rb) maʼnosini oldi. Bu otlarning oʻziga xosligi “kutilmagan, toʻsatdan xavfning yaqinlashishi” va “mudofaa uchun kuchlarni safarbar qilish” semalaridan iborat. *Alerte* leksemasi *alarme* leksemasidan koʻra kamroq xavotir tuygʻusini bildiradi.

Affolement, panique, épouvante qoʻrquv turini anglatadi. Bu qoʻrquv turida odam oʻz xatti-harakati ustidan nazoratni va fikr yuritish qobiliyatini yoʻqotadi. Masalan, Sardou oʻz lugʻatida *épouvante* hissi haqida shunday yozadi: *épouvante: le trouble qu'elle excite dans l'âme ne permet pas la délibération* [Sardou, 2010; 361].

Bu tartibsiz harakat qoʻrquv hissining namoyon boʻlish shakli sifatida tushuntiradi.

Pris de panique, il faillit se ruer vers la porte, s'enfuir, courir dans les rues [Levron, 1972; 84].

Partout ce sont les mêmes cris d'épouvante et les mêmes débandades, les lourdes courses noires dans les rues aveuglantes [Icor, 1960; 144].

Ushbu xususiyatga asoslanib, vahima ot “*qiy-chuv, toʻpolon*” maʼnosini olishi mumkin.

Har uchala ot asosan kuchli va qisqa muddatli tuyg‘uni bildiradi:

*J'en ai eu un coup de **panique**. Simple éclair d'épouvante* [Exbrayat, 1970; 68].

Uchinchi guruh otlar *crainte*, *appréhension*, *transes* otlari tashkil qiladi. Bu otlar guruhi xatarni mantiqiy idrok etish bilan (*réflexion*) bilan bog‘liq. Lug‘atda berilgan ta’riflar *juger*, *croire* fe’llarini o‘z ichiga oladi. *Crainte* va *appréhension* – his-tuyg‘ularni bildiradi, uni boshdan kechirish orqali odam vaziyatni mulohaza yuritishi va baholashi mumkin (*les craintes justifiées*, *exposer ses craintes*). *Crainte* va *appréhension* solishtirilganda, yaqinlashayotgan aniq xavf hissini aniq anglatishga xizmat qiladi : *la crainte est la vue, et l'appréhension – le soupçon d'un danger*;

*Un voyageur **appréhende** toujours le mauvais temps, il ne le **craint** que quand le ciel est chargé de nuages* [Hosseini, 2003; 82].

Crainte leksemasida da “hurmat”, “kamtarlik” ma’nosi paydo bo‘lishi mumkin:

*Une **crainte respectueuse**, il y avait comme de la crainte et comme de la soumission dans ses yeux* [Exbrayat, 1970; 98].

To‘rtinchi guruhga esa *inquiétude*, *anxiété*, *angoisse*, *alarmes* otlari kiradi:

Angoisse eng kuchli tuyg‘uni, *inquiétude* eng zaifni bildiradi: “*inquiétude* marque l’état affectif pénible causé par la crainte, l’appréhension [https://www.larousse.fr].

Angoisse oti tushkun ruhiy holatni ham anglatadi:

L’angoisse se retira d’elle, la laissant physiquement douloureuse et comme rouée [Japrisot, 1977; 99].

Angoisse va *anxiété* bilan ifodalanadigan qo‘rquv hissi bilan birga keladigan o‘ziga xos belgilar ko‘krak qafasi siqilishi va og‘riq hissi, nafas olish qiyinlashuvidir. Bu komponent *angoisse*, *anxiété* lotincha *angere* “siqmoq” etimologik ma’nosiga asoslanadi: *l’angoisse noue la gorge; une boule d’angoisse dans la gorge; l’angoisse saisit (prend) à la gorge; étouffer, haleter d’angoisse, d’anxiété*.

L’angoisse s’installait entre le diaphragme et la gorge, entre les seins, sur la poitrine où se dessinait une croix de poils bruns et frisés [Willam, 2002; 78].

Xavfning noaniqligi zaif izolyatsiya, tuyg‘uni zaif anglash bilan bog‘liq: *une vague inquiétude, une espèce d’angoisse, une certaine inquiétude, une angoisse confuse*.

*On les mit dehors, ou plutôt dans les cars et en route... Destination inconnue. Légère **inquiétude*** [Troyat, 1940; 104].

(...) et je demeurai dans l’incertitude. Ce désarroi grandissait, il devenait de *l’inquiétude* avec chaque jour qui passait sans que la Réverende Mère me fit appeler [Sadoul, 1991; 37].

O.Bayi sinonimlar lug‘atida bu tuyg‘uni keltirib chiqargani sababli *angoisse* tuyg‘usining abstraksiya xususiyati qayd etilgan: “*Angoisse* se dit d’une *inquiétude* excessive qu’accompagnent un découragement et un abattement complets; il se rapporte généralement à l’état et fait abstraction de l’objet, lequel est au reste le plus souvent mal défini” [Bailly, 1947].

Inquiétude, *alarmes*, *anxiété* orqali ifodalangan his-tuyg‘ular, odatda, ma’lum bir davomiy muddatga tortiladi: *vivre dans l’anxiété, de continuelles alarmes*.

Robert lug'ati *anxiété* ni *angoisse* dan kuchi kamroq tuyg'u deb tushuntiradi: "*Anxiété a le même radical qu'angoisse et en diffère très peu. Cependant l'anxiété est moins vive et plus constante; c'est un état d'angoisse, mais un état affabli*" [Lafaye, 1861; 1005].

Shuni ta'kidlash kerakki, lug'atlarda umumiy atama so'zlar (termes génériques) sifatida ko'pincha *peur*, *crainte* ishlatiladi. Biroq, Littré, *peur* va *crainte* sinonimlar sifatida beradi va ular orasidagi farqni ta'kidlaydi: "*la crainte peut être raisonnée et lointaine, la peur est instinctive et présente*".

Agar *crainte* kontekstda taxminiy antonim *espoir* (espérance) bilan solishtirilsa, *peur* esa *courage* bilan bir xil munosabatda bo'ladi, masalan:

Au fond, le courage n'est une vertue que lorsqu'il sert à maîtriser la peur qui tord le ventre [Druon, 1951; 128].

Psixofizik miqyosda *qo'rquv* diapazoni bevosita xavf paydo bo'ganda organizm eng oddiy reaksiyasidan tortib to shaxsning murakkab fikr-mulohazalaridan kelib chiqadigan turlarga bo'linadi: ijtimoiy qo'rquv, fobiya, xudodan qorqish. Bu reallik faqat odamlarga xos bo'lgan his-tuyg'ularni ifodalash uchun *qo'rquv* konsepti otlari tizimida turli darajadagi leksemalar mavjud bo'lishiga ta'sir qiladi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan otlar orasida *apprehension*, *angoisse*, *anxiété*, *crainte*, *horreur*, *transes*, *affres* hayvonni hissiyotning "egasi" sifatida ko'rsatuvchi ot bilan ishlatilmaydi. Shu bilan birga, *alarme*, *effroi*, *terreur*, *affolement*, *peur*, *épouvante* otlarining hayvonlar, qushlar va hokazolarni bildiruvchi so'zlar bilan kelishi mumkin.

Les grenouilles sautaient d'effroi dans le lac. Il s'est sauvé comme une bête en alarme. (...) au comble de l'épouvante l'oiseau se cognait contre les murs (...). C'était comme une panique dans le poulailler. L'affolement de fourmis sur le terre-plein [Japrisot, 1966; 107].

"Qo'rquv" ma'nosidagi semaning farqlovchisi sifatida quyidagi semantik xususiyatlar namoyon bo'ladi: Tirik jonzotlarga xos tuyg'uni shartli ravishda *A* harfi bilan belgilaymiz: inson uchun – A_1 va hayvon uchun – A_2 ; yuqori intensivlik xususiyati – B_1 , past intensivlik – B_2 ; xavf tufayli yuzaga kelganligi – *C*, bunda xavf yaqin – C_1 , xavf uzoq – C_2 ; aniq xavf – C_3 va noaniq xavf – C_4 , to'satdan paydo bo'lishi – C_5 ; davomiyligi – *D*; qisqa – D_1 yoki uzoq muddatli – D_2 ; fikrlash qobiliyatini yo'qotish bilan tavsiflanishi – *E*, fikrlash qobiliyatining mavjudligi – E_1 ; o'zini namoyon qilish belgisi – *F* bilan, dinamik xususiyati – F_1 , statik xususiyati – F_2 , qochishga undash xususiyati – F_3 , karaxtlikka solishi – F_4 ; tahdidga javob berishga tayyorgarlik – F_5 ; boshqa biror tuyg'uning zaif darajasi mavjudligi – *G*, hurmat, hayrat – G_1 , nafrat – G_2 , melanholiya – G_3 , tashvish – G_4 .

Qo'rquv konseptining to'rtta sinonim guruhining asosiy semalari quyidagi jadvalda keltirilgan. Biroq, shuni hisobga olish kerakki, tahlil qilinayotgan konsept kontinuumni ifodalaydi, unda barcha birliklar qat'iy reytingga bo'ysunmaydi, shuning uchun ba'zi hollarda leksemalar xususiyatning mavjudligi yoki yo'qligi bilan emas, balki ega bo'lish qobiliyatining katta yoki kichikligiga qarab beriladi. Shunday qilib, jadvalda ma'lum bir guruhning berilgan xususiyatga egalik + (plyus) belgisi bilan, xususiyat yo'qligi – (minus) belgisi bilan ko'rsatilgan, 1 va 2 raqamlari mos ravishda

qo‘rquv darajasining kuchini ko‘rsatadi.

1-jadval.

Peur konseptining semantik xususiyatlari

Semalar Dominant sin. guruhlar	Barcha tirik jonzotga xos	Faqat insonga xos	Xavf yaqinligida	Xavf uzoqligida	Uzoq muddatli	Qisqa muddatli	Yuqori intensivlik	Past intensivlik	Fikrlash qobiliyatini yo‘qotish bilan birga keladi	Mulohaza yuritish qobiliyati mavjudligi yo‘qolishi
I. <i>Peur</i>	2	–	1	+	+	+	+	+	+	+
II. <i>Panique</i>	1	–	2	–	–	2	2	–	2	–
III. <i>Crainte</i>	–	2	–	2	2	–	–	2	–	2
IV. <i>Inquiétude</i>	–	1	+	+	1	–	–	1	–	1

Xususiyatlarining o‘xshashligiga ko‘ra sinonimik kichik to‘plamlar quyidagicha guruhlanadi: *peur* – *panique*, *crainte* – *inquiétude*. *Panique* leksemasida qo‘rquvning eng yuqori darajasi aks etadi va deyarli barcha xususiyatlar unda mavjud. *Peur* leksemasi esa neytral va *inquiétude-crainte* guruhining bir qator xususiyatlarini takrorlaydi, lekin zaiflashgan shaklda. Dominant *peur* otiga ega bo‘lgan guruh ko‘p xususiyatlarga ega bo‘lib, *qo‘rquv* konseptini eng to‘liq, umumiy tarzda ifodalaydi, shuning uchun *qo‘rquv* konsepti sinonimik qatorining semantik markazi o‘rnini egallaydi.

Shunday qilib, to‘rtta sinonimik guruhning paradigmatic qarama-qarshiligi uchun A, C, D, E, F semantik xususiyatlari va guruh ichidagi qarama-qarshiliklar uchun B, D, F, G xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Guruhlar o‘rtasidagi o‘xshashlik va farqlar natijalarini quyidagicha tasvirlash mumkin:

2-jadval.

<i>peur</i> A₁, A₂ – barcha tirik jonzotga xos	<i>panique</i> F₁ – dinamik sifat C₁ – yaqin xavf E₁ – fikrlash qobiliyatining yo‘qligi F₂ – qochish F₃ – karaxtlik
<i>crainte</i> C₂ – uzoq muddatli yoki kutilgan xavf E₂ – fikrlash qobiliyatining mavjudligi A₁ – insonga xos F₂ – namoyon bo‘lishning statik turi	<i>inquiétude</i> C₄ – noma’lum xavf A₁ – insonga xos F₂ – namoyon bo‘lishning statik turi

Sinonimik guruhlarining har birida *qo‘rquv* otlari tuyg‘uning hissiy to‘yinganligi darajasida farqlanadi, garchi bu intensivlik chegarasi so‘zdan foydalanishga qarab, u

yoki bu yo‘nalishda o‘zgarishi mumkin. *Peur* guruhida B_1 yuqori intensivlikka ega *effroi*, *horreur*, *terreur* leksemalari va intensivligi pastroq – B_2 xususiyatli *frayeur* leksemalari mavjud.

Panique guruhida barcha otlar intensiv, ammo *panique* va *affolement* so‘zlarida intensivlik indeksi B_1 ga, *épouvante* leksemasida esa B_2 ga teng. *Crainte* guruhida *appréhension* otining intensivligi zaif bo‘lib, B_2 bilan belgilanadi. *Inquiétude* guruhida *anxiété* B_1 , B_2 , *angoisse* B_1 , B_2 semelari bilan ifodalanadi.

Alerte, *alarme* otlari F_1 dinamik xususiyatga ega va B_1 intensivligi bilan farqlanadi: *alarme*, *alerte* – B_2 . Davomiyliги bo‘yicha u *frayeur* D_1 va *effroi* D_2 dan farq qiladi.

Frayeur otida F_1 belgisi xarakterlidir, F_1 va F_2 xususiyati yoki stupor reaksiyasi I guruhda *terreur*, III guruhda *trances* otlarida mavjud. *Qo‘rquv* hissiy konsepti tizimida boshqa tuyg‘uning mavjudligi *horreur* va *effroi* leksemalarida ham uchraydi. *Horreur* va kamroq tarqalgan, *effroi* – G_2 ya‘ni *nafrat*, *crainte* so‘zlarida – G_1 , *hurmat*, *hayrat*, *anxiété*, *angoisse* G_3 – *sog‘inch*, *inquiétude* – G_4 tashvish kabi leksik birliklarida aralash tuyg‘ular kuzatiladi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, *qo‘rquv* konseptining barcha leksemalarini qat‘iy tasniflash imkoni yo‘q. Ba‘zi otlar *peur* ma‘nosining past chastotasi va o‘ziga xos ma‘no komponentlari mavjudligi bilan tavsiflanadi. Bularga *fobie* – tibbiy atamasi ham kirib, ma‘lum predmet yoki hodisalardan qo‘rqishning ruhiy xastalik darajasini anglatadi. *Affres* – esa kuchli, og‘riqli *qo‘rquv* hissi, ko‘pincha azoblanish paytida boshdan kechiriladi. *Timidité* – asosan uyatchanlik hissini bildiradi, ammo ayni paytda shaxsning *qo‘rquv*ga moyilligini ham ifodalaydi, shu jihatdan bu so‘z o‘z kuchiga ishonmaslikdan kelib chiqadigan zaif *qo‘rquv*ni anglatishi sababli *peur* leksemasiga potentsial sinonimdir.

Qo‘rquv hissi jadvalda ko‘rsatilmagan bir qator boshqa jismoniy belgilar bilan birga kelishi mumkin. *Qo‘rquv*ning faqat bir yoki bir nechta turiga u yoki bu xususiyatning har qanday eksklyuziv bog‘liqligini aniqlash mumkin emas. Ba‘zi alohida olingan so‘zlar boshqa hayajonli holatlarni anglatishi mumkin: *les traits décomposés par la peur et le désespoir*, *malade de peur et de chagrin*.

Biroq, shunday iboralar borki, ular tarkibida *qo‘rquv*ni bu his-tuyg‘uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri anglatuvchi ot bo‘lmagan taqdirda ham ular *qo‘rquv* hissiyotini ifodalashga xizmat qiladi:

Un poing géant lui tordait le ventre. Il n'osait bouger un doigt, un torrent tumultueux d'images se ruait à travers son esprit [Mauriac, 1933; 81].

A tous les bruits je sursaute. Je ne peux plus avaler ma salive, j'agonise [Mac Orlan, 2010; 238].

Qo‘rquv hissining jismonan namoyon bo‘lish belgilari tilda quyidagi so‘zlar va so‘z birikmalari yordamida ifodalanadi:

- 1) *fou de*, *perdu de*, *affolé par*;
- 2) *une fuite éperdue*, *sursauter*, *bondir*, *dégringoler*, *s’élancer*, *courir*;
- 3) *les jambes coupées*, *transi*, *paralysé*, *immobilisé par*;
- 4) *trembler de*, *un frisson de*, *les cheveux hérissés*, *la chair de poule*, *glacé de*

peur, avoir (faire) froid dans le dos;

5) *le sang bat aux oreilles, le cœur serré;*

6) *muet de, la parole coupée, bégayer de;*

7) *pâler de, blêmir de, blanc de, pâle de, livide de;*

8) *la bouche sèche, (la peur) saisit à la gorge, une boule dans la gorge; étouffer, haleter;*

9) *avoir mal au ventre;*

10) *suer de, une sueur froide, le front moite, les mains moites;*

11) *un cri de, crier de, hurler de, pousser un cri de;*

12) *un regard de, regarder avec, les yeux pleins de, un air de, un signe de, une expression de, exprimer, laisser voir (sa peur);*

13) *malade de, tordu, dévoré par, les traits décomposés.*

Shuningdek, *pâler, blêmir, paralyser, glacer* kabi fe'llar qo'rquv tuyg'usi bilan barqaror bog'langan: – *Goubi ! Viens ici ! Goubi blêmit* : “*Ya le feu!*” [Troyat, 1940; 234]. *Ses ciseaux cliquetaient féroceement. Ce bruit me glaçait* [Zola, 2018; 45].

Peur emotsional konseptiga kiruvchi otlarda son kategoriyasi

Ma'lumki, *peur* konsepti doirasiga kiruvchi otlar **mavhum** ot sanaladi. Barcha mavhum tushunchalar singari ularning jins kategoriyasi ham faqat sintaktik sathda shartlashgan, ammo son kategoriyasi ba'zi hollarda so'zdagi ma'lum semantik o'zgarishlarning ko'rsatkichi bo'lib xizmat qilishi mumkin. Fransuz tilida mavhum otlarning ko'plikda qo'llanilishi ma'no kuchayishi bilan xarakterlanadi.

Mavhum otlarning ko'plikda qo'llanilishi fransuz tilida juda ko'p uchraydi. Aynan ma'noni kuchaytirilishi sababli *affres* va *transes* otlari doimo ko'plikda qo'llanilishi birlik shaklining yo'qolishiga olib kelgan: *les affres de la mort, les transes mortelles*.

Horreur otida ko'plik shakli kuchaytirish ma'nosini beradi: *commettre des horreurs, dire des horreurs, les horreurs de la guerre* kabi birikmalarda qo'rquv uyg'otadigan hodisa yoki obyektini bildiradi.

Kontekstda mavhum otlarning ko'plik shakli voqeaning qayta sodir bo'lish ma'nosiga ega bo'lib, “*xavf haqidagi qo'rquv*”ni bildiradi: *craintes, apprehensions, angoisses, alarmes, inquiétudes* otlari asosan qo'rquv bilan bog'liq faraz, hukm, xulosa berish ma'nosida *raconter, exposer, comprendre, penser* kabi fe'llardan keyin qo'llaniladi.

Peur konseptiga oid otlarning boshqa otlar bilan birikuvi

Peur ma'noli otlarning boshqa otlar bilan birikuvi asosan **de** predlogi orqali amalga oshadi. Fransuz tilida bu predlog juda ko'p o'rinda qo'llanishiga qaramay, shartli ravishda ko'rib chiqilayotgan birikmalar ichida ifodalangan munosabatlarni to'rt turga bo'lish mumkin:

1. Xususiyligi tushunchaning umumiylikka munosabati: *un sentiment de peur, de terreur* va boshqalar, *un état de panique, d'affolement, d'angoisse, d'appréhension* va boshqalar, *une sensation d'horreur, d'angoisse*.

2. Harakat subyektining harakatga munosabati, ot esa – yasashning birinchi

elementi qoʻrquv hissiyotining mavjudligini: *la presence de*; yoki uning kamayishini: *la fin de, un reste de*, tuygʻuning takrorlanishini koʻrsatuvchi: *le retour de*; toʻsatdan va tez paydo boʻlishi: *un coup de, un accès de, un éclair de, un assaut de* ifodalashga xizmat qiladi.

3. Hisning davomiyligini ifodalash uchun *les heures de, les mois de, moment de, un instant de, une minute de* kabi otlar ishlatiladi.

Elle eut un moment de panique. Mais il ne se passa rien d'affreux [Willam, 2002; 84].

Avec cet instinct sûr de la soumission que donnent vingt ans de crainte, Plantin rectifia la position [Jelloun, 1995; 92].

Je suis trop heureux après tous ces jours d'angoisse, pour pouvoir dormir [Willam, 2002; 167].

4. Belgining xarakterlanayotgan hodisaga munosabati. Qoʻrquv konseptiga tegishli otlari qoʻrquv hissining namoyon boʻlishini bildirish uchun xizmat qiladi: a/ koʻz qarashda: *un regard de, les yeux de*; b/ ovozd: *un cri de, un ah de, la voix de, l'accent de, un gémissement de*; c/ beixtiyor harakatda: *un sursaut de*; r/ qaltirash: *un frisson de*; d/ nafas olish qiyinlashganda: *un halètement de, une boule de* yoki umumiy ajratilmagan shaklda berilgan tuygʻuning namoyon boʻlishini koʻrsatadi: *un air de, une expression de, un signe de, une reaction de* va h.k.

Birinchi turdagi ifodalanagan munosabat bilan iborani jumlagi kengaytirish mumkin, unda qoʻrquv umuman hissiyot sifatida aniqlanadi: *un sentiment de peur = la peur est un sentiment*.

Ikkinchi turdagi munosabatda *la fin de la panique = la panique finit* qoʻrquvni anglatuvchi ot faol kuch vazifasini bajaradi, bunda birinchi element *la fin* semantik jihatdan otga bogʻliq.

Uchinchi turdagi munosabatlarda *un instant de peur = vingt ans de crainte* uzoq davom etuvchi yoki kechiktirilgan qoʻrquvni tavsiflaydi.

Toʻrtinchi turdagi munosabatlarda *un cri de peur = un cri provoqué par la peur* – hissiyotning namoyon boʻlish sababini bildiruvchi elementni tavsiflaydi.

Shunday qilib, *N + de + N* formulasida birinchi turgan *N* ot har doim jonsiz ot bilan ifodalanadi va bu turdagi birikmaning asosiy maqsadi otni umumiy konsept bilan bogʻlash, muddatini tavsiflash va tashqaridan namoyon boʻlishi tasvirlashdir.

Shuningdek, *de* predlogidan keyin kiritilgan atoqli ot qoʻrquvni his qilgan subyektni aniqlaydi: *la peur d'Alexandre*.

L'appréhension des voyageurs avait disparu ... [Jelloun, 1995; 122].

Bu turdagi konstruksiyalarda, kontekstdan tashqarida, *de* predlogi bilan kiritilgan ot qoʻrquv hissinı keltirib chiqaradigan sabab jonli va jonsiz ot bilan belgilanishi mumkin: *la peur de mon père, la peur de la mort*.

Berilgan holatning sababini koʻrsatadigan jonsiz otlar koʻp va xilma-xildir. Avvalo, ular orasida inson hayotiga, sogʻligʻiga tahdid soladigan hodisa va narsalarni: *mort, maladie, blessure, guerre, catastrophe, accident* va insonning jamiyatdagi mavqeyi, obroʻsi, farovonligi va boshqalarni bildiruvchi soʻzlar *représailles, punishment, prison, solitude, colère* etc.

Il dit ça machinalement repris d'un coup par l'angoisse confuse de l'arrestation [Lessing, 2001; 86].

Agar aniqlovchi a'zo jonli ot bilan ifodalangan bo'lsa, *N+de+N* yasalishi qo'sh ma'noga ega bo'ladi. Shunday qilib, "*Oh! Cette peur des femmes!*" jumlasida biz ayollardan qo'rqadigan odam haqida va ayollar boshdan kechiradigan qo'rquv haqida gapirishimiz mumkin yoki *la peur de la mère* birikmasida *la mère* his-tuyg'u egasi va qo'rquv sababchisini anglatishi mumkin. Buni quyidagicha o'zgartirish mumkin: *la peur de la mère*: 1/ *la mère a peur*; 2/ *la mère fait peur à qn* yoki *qn a peur de la mère* nutqda odatda bu holat egalik aniqlovchisi orqali qo'shimcha belgi oladi, masalan,

Je devine la peur de sa mère (la mère - sujet). Je devine sa peur de la mère (la mère – complément).

N+de+N konstruksiyasida *de* predlogi *devant*, *envers* ravishlari bilan almashtirganda sabab munosabati bilan bir ma'nolilikka aylanadi. Buni ushbu formula bilan ifodalash mumkin: *N + devant + N*.

Cette ignorance étant acceptée, il éprouve de l'angoisse devant l'absurdité de sa condition [Troyat, 1940; 141].

Qo'rquv konsepti otlari bilan birgalikda kelgan *pour* predlogi bilan kiritilgan to'ldiruvchi (*complément du nom*) xavf hissiyot egasiga emas, balki boshqa shaxsga tahdid solayotganini yoki biron bir obyektga moddiy zarar yetkazilishi kutilayotganligini ko'rsatadi. Masalan: *la crainte pour son enfant = la crainte qu'on éprouve à cause de son enfant qui peut tomber malade*; *la peur pour sa coiffure = la peur qu'on a à cause de sa coiffure menacée par pluie*. *Pour* predlogi bu holatlarda his-hayajon, qo'rquv sababini ko'rsatadi.
